

ERKIN VOHIDOVNING «O‘ZBEGIM» QASIDASIDAGI O‘ZBEK TIMSOLINI IFODA ETUVCHI TASHBEHLAR

Shokirova Mohinur Shokir qizi,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Berdiyev Xusan Xolnazarovich,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidovning «O‘zbekim» qasidasi badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda shoir o‘zbek xalqining tarixiy ildizlari, ma’naviyati, ruhiy olami hamda milliy o‘zligini tarannum etishi ko‘rsatiladi. Qasidada o‘tgan ajdodlar jasorati, millatning bag‘rikengligi, mehnatsevarligi va vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak poetik mahorat bilan ifoda etgani yoritiladi. Shuningdek, asarning janr xususiyatlari, undagi tasviriy vositalar — metafora, tashbeh, metonimiya, sinekdoxa va majoziy obrazlar tahlil etilib, shoirning badiiy tildan foydalanish uslubi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida «O‘zbekim» qasidasi milliy uyg‘onish ruhini, xalqning g‘urur va oriyatini ifodalovchi muhim adabiy manba sifatida baholanishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: qasida, milliy g‘urur, tarixiy xotira, milliy uyg‘onish ruhi, ruhiy kechinma, badiiy til, tarixiy xotira, o‘zbek xalqining timsoli.

O‘zbek she’riyatining zabardast namoyandalaridan biri Erkin Vohidov tomonidan yozigan «O‘zbekim» qasidasi nafaqat adabiy asar, balki butun bir davr, xalq va millat ruhiyatining timsoliga aylangan. Ushbu qasida, 1968-yilda yozilgan bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligi, g‘oyaviy mazmun va badiiy ifoda kuchi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shoir asarda o‘zbek xalqning o‘tmishdagi shonli tarixini, uning boy madaniyat va bebaho qadriyatlarini g‘urur bilan madh etadi. Ayniqsa, sobiq ittifoq mafkurasi hukmron bo‘lgan bir davrda yozilgan bu

kabi kuchli milliy ruhdagi asarning paydo bo'lishi Erkin Vohidovning ijodiy jasorati va vatanparvarlik tuyg'ularning yorqin ifodasidir.

«O'zbekim» qasidasi orqali shoir o'z xalqning kimligini, tarixiy ildizlarini eslatadi, ularning or-nomus, buyuk kelajagi borasidagi fikr-malohazalarini keng ifoda etadi. Asarda nafaqat tarixiy o'tmish, balki kelajak umidi, istiqlol g'oyasi, vatan erki kabi muhim tushunchalar badiiy vositalar orqali chuqur talqin etilgan. Qasidada o'zbek millatining madaniy merosi, buyuk ajdodlari, istiqlolga bo'lgan intilish hamda milliy g'ururi ulug'lanadi. Bu asar xalqimizning mustaqil davlatga ega bo'lish orzusi, ichki iztirob va faxr tuyg'ularini jamlagan she'riy yodgorlik sifatida qadrlanadi. Mazkur qasidaning dolzarbligi, ayniqsa, mustaqillik yillarida yanada oshdi «O'zbekim» qasidasi nafaqat o'zbek adabiyotining mumtoz namunasi sifatida, balki tarbiyaviy, mafkuraviy va ma'naviy jihatdan ham yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi manbaa sifatida qadrlanmoqda. Asarda ifodalangan fikrlar, badiiy obrazlar va tarixiy ramzlar yosh avlodda Vatanga muhabbat, milliy iftixor va fidoyilik hissini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasada Vatan, xalq va millat haqidagi g'oyalar chuqur va ko'p qirrali tarzda ifodalangan. Shoir o'zbek xalqning tarixiy o'tmishi, buyuk shaxsiyatlari va yuksak qadriyatlarini tasvirlab, ular bilan faxrlanishni ta'kidlaydi. Shoir, o'zbek xalqining qadimiy tarixini ulug'laydi va uning tarixiy buyukligini ta'kidlaydi. Masalan:

*Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbekim,
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.*

satrida o'zbek xalqining o'tmishdagi buyuk shaxslar va madaniyatlar bilan solishtirib, o'zbek xalqining buyukligini yuksaltiradi. Bundan tashqari,

*So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida*

Bitta marjon, o'zbekim.

misrasi bilan shoir xalqning madaniy va tarixiy merosga hurmat ko'rsatadi. Shoirning bu asardagi asosiy g'oya shundaki, millatning tarixi va o'tmishdagi yuksak qadriyatlarini eslatish orqali bugungi kunda bu qadriyatlarni saqlash, ularga hurmat ko'rsatish va ularga sadoqat ko'rsatish kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu qasida o'zbek xalqining o'tmishiga hurmat bilan birga, kelajakdagi xalqning ruhiy kuchini ifodalaydi. Shoir xalqni ulug'lab, uning tarixiy merosini saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish zarurligini bildiradi.

Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasida shoirning satrlar uning xalqiga bo'lgan chuqur sadoqatini, sevgisini va yuragidagi tuyg'ularni aks ettiradi.

*Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon, o'zbekim.*

Shoir bu satrda Vataniga bo'lgan chuqur sevgisini ifodalaydi. U Vatanini gulli bog' sifatida tasvirlaydi, bu esa Vatanining go'zalligi va uning xalqiga bo'lgan mehrini ko'rsatadi. Shoirning bu satrda Vatanini sevish va uning barcha go'zalligini his etish tuyg'ulari to'la aks etgan.

*Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,
Ko'kragida tog' ko'targan
Tanti dehqon, o'zbekim.*

- bu misrada shoir o'z xalqining mehnatkashligini, qat'iyati va kuchliligini ta'kidlaydi. U o'z xalqini yuksak qadriyatlar va qat'iyat bilan ulug'laydi. Shoir bu satr orqali xalqning har bir a'zosining mehnatiga bo'lgan hurmatini va uning kuchli iroda bilan yashayotganligini ta'kidlaydi. Bu satrlar orqali shoirning yurakdan chiqqan va xalqining ruhiyatiga chuqur kirib boradigan tuyg'ulari aks etadi:

*Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,*

Lek avval senga bo'lsam

Sodiq o'g'lon, o'zbekim.

- bu satrda shoir o'zining milliy iftixorini ochiq-oydin ifodalaydi. U o'zini o'zbek xalqing bir qismi, uning farzandi sifatida ko'radi va shu orqali o'zining buyuk tarixga bo'lgan aloqasi va bu tarixga bog'langanligini ta'kidlaydi. Shoirning bu satri xalqining g'ururini, milliy hissiyoti va o'z vataniga bo'lgan sadoqatini namoyish etadi. Bu ifoda she'rda shoirning o'z xalqining tarixi va qadriyatlariga bo'lgan chuqur hurmatini anglatadi.

O'zbekim deb keng jahonga

Ne uchun madh etmayin!

O'zligim bilmoqqa davrim

Berdi imkon, o'zbekim.

- ushbu misralarda shoir o'z xalqining buyukligini dunyo miqyosida ulug'lashga chaqiradi. Shoirning bu so'zdan o'zbek xalqining nafaqat mahalliy, balki global miqyosda ham buyukligini e'tirof etadi. O'zbek xalqining madaniyati, tarixi va umuman xalqning o'ziga xosligi shoir tomonidan samimiy ifodalanadi.

Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasida xalqiga bo'lgan mehr va faxr tuyg'usi faqatgina o'tmishga bo'lgan hurmat hamat bilan cheklanmaydi, balki bu tuyg'ular bugungi kunda ham muhimligi va kelajakka bo'lgan ishonch bilan aks ettiradi.

«O'zbekim» qasidasida badiiy vositalar va ifoda kuchi yuqori darajada namoyon bo'ladi. U she'rda epitet, tashbeh, metafora, parallelizm kabi badiiy vositalardan keng foydalanadi.

Epitet - bu biror narsaning xarakterini yoki xususiyatlarini ifodalashda ishlatiladigan badiiy vosita bo'lib, u shoirning tiliga ifodali va rang-baranglik kiritadi. «O'zbekim» qasidasida shoirning ishlatgan epitetlari uning Vatan, xalq va millatga bo'lgan sevgini yanada kuchaytiradi. Masalan: «Buyuk yurt» - bu epitet o'zbek xalqining qadimiy va yuksak tarixini ifodalaydi. Yurtning buyukligi xalqning tarixiy va madaniy boyligini ta'kidlaydi.

«Gulli bog'» - bu epitets orqali Vatanni go'zal va qimmatli, yashil gullar bilan bezatilgan bog' sifatida tasvirlaydi. Shoir bu obraz orqali Vatanning go'zalligini, o'ziga xosligini va uning xalqiga bo'lgan mehrini ta'kidlaydi.

Tashbeh - bu taqqoslash vositasi bo'lib, ikki narsani bir-biriga o'xshatish orqali tasvirlash usulidir. Shoirning «O'zbekim» qasidasida tashbehning ishlatilishi uning asaridagi obrazlarni yanada yaqqol va qiziqarli qiladi. Masalan: «Ko'kragimni tog' qilib, Ko'kragida tog' ko'targan Tanti dehqon». Bu satrda dehqonning mehnatini tasvirlash uchun tashbeh ishlatilgan.

«Sensan unda bitta gul» - Vatanni bog'ga o'xshatish tashbehi orqali shoir Vatanning go'zalligini, uning har bir burchagida gullar kabi nozik va qimmatli narsalar yashashini tasvirlaydi.

Metafora - bunda biror predmetni yoki hodisani boshqa biror narsa orqali bevosita tasvirlanadi. Asarda metaforalardan foydalanish orqali Vatan, xalq va millat ma'nolarini yoritadi. Masalan: «Vatanimni bog' deb aytsam» metaforasi orqali Vatan shoir uchun tinchlik, farovonlik va gullab-yashashni anglatadi.

Parallelizm - bu bir xil yoki o'xshash tuzilmali gaplarni qo'llash orqali badiiy ta'sir yaratish usulidir. «O'zbekim» qasidasida parallelizmni ishlatish orqali o'z xalqining xulq-atvori, uning kurashi va kuchini ta'kidlaydi. Masalan: «So'ylasin Afrosiyob-u, So'ylasin O'rxun xati» - o'zbek xalqining o'tmishdagi buyukligini va uning bugungi kuniga bo'lgan ishonchini ulug'laydi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasi o'zbek xalqining tarixiy merosi, ma'naviy qadriyatlari va milliy o'zligini ulug'lovchi badiiy asardir. Shoir qasidasi orqali ajdodlar jasorati, xalqning matonati va ruhiy boyligini jonli obrazlar bilan tasvirlaydi. Asarda ishlatilgan poetik vositalar – metafora, tashbeh, metonimiya – qasidaga chuqur ma'no va hissiy kuch bag'ishlaydi. «O'zbekim» nafaqat milliy g'urur va iftixorni uyg'otadi, balki o'quvchini o'z tarixiga hurmat bilan qarashga, milliy qadriyatlarni qadrlashga ilhomlantiradi. Shu bilan birga, asar adabiyotimizda ma'naviy uyg'onish va milliy o'zlikni yuksaltiruvchi muhim manba sifatida alohida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov E. «O‘zbekim». – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Vohidov E. «Tanlangan asarlar». – Toshkent: Sharq, 2000.
3. Abdullayev R. «O‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik mavzusi». – Toshkent: Fan, 2010.
4. Qodirov A. «XX asr o‘zbek she’riyatida tarix va millat mavzusi». – Toshkent, 2005.
5. Sobirov F. «Badiiy tahlil uslublari va poetik vositalar». – Toshkent, 2015.